Kurbonova Gulsara Sodikovna (O‘zbekiston Milliy universiteti “Fransuz filologiyasi” kafedrasi dotsenti, (DSC); Gulsara.qurbonovna@gmail.com)

MILLIY-MADANIY SO‘ZLARNING TARJIMADA BERILISHI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada fransuz yozuvchisi Amin Maalufning “Samarcande” (“Samarqand yoxud zulmatda yo‘qolgan ziyoni izlab”) asarining asliyati va uning o‘zbek tiliga tarjimasida milliy-madaniy so‘zlarning tarjimada berilishi o‘rganiladi. Unda tarjimon mahorati perefraza va transpoziya, ya’ni adaptatsiya usullari, shuningdek, germenevtik yondashuv, tavsifiy tarjima, to‘g‘ri tarjima, o‘xshashlarni tanlash, transliteratsiya usullari yordamida adekvatlik tamoyillari asosida ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *asliyat va tarjima, milliy-madaniy so‘zlar, perifraza, tarjima usullari, adekvat tarjima, tarjima akti, pragmatik tarjima.*

Курбонова Гульсара Содиковна (Национальный университет Узбекистана, доцент (DSC) кафедры французской филологии; gulsara.qurbonovna@gmail.com)

ПЕРЕВОД НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫХ СЛОВ

Аннотация. *В данной статье исследуются истоки романа французского писателя Амина Маалуфа “Samarcande” (“Самарканд, или в поисках потерянного во тьме”) и перевод национально-культурных слов в его переводе на узбекский язык. В нем раскрывается мастерство переводчика на основе принципов адекватности с использованием перефразирования и транспозиции, то есть методов адаптации, а также герменевтического подхода, описательного перевода, корректного перевода, подбора аналогов, методов транслитерации.*

Ключевые слова: *оригинальность и перевод, национально-культурные слова, периферия, методы перевода, адекватный перевод, акт перевода, прагматический перевод.*

Kurbonova Gulsara Sodikovna (DSc, Associate professor National University of Uzbekistan, Department of French Philology; gulsara.qurbonovna@gmail.com)

TRANSLATION OF NATIONAL CULTURAL WORDS

Annotation. *This article explores the origins of the novel by French writer Amin Maalouf “Samarkand” (“Samarkand, or in search of lost in darkness”) and the translation of national cultural words in its translation into Uzbek. It reveals the translator’s skill based on the principles of adequacy using paraphrasing and transposition, that is, methods of adaptation, as well as a hermeneutic approach, descriptive translation, correct translation, selection of analogues, transliteration methods.*

Keywords: *originality and translation, national cultural words, periphery, translation methods, adequate translation, act of translation, pragmatic translation.*

Kirish. Bugungi kunda “til kompetentligi”, “tarjima asarlarning chet el madaniyatini o‘rganishdagi o‘rni”, “tarjima madaniyati” kabi mavzular tarjima muammolari, ayniqsa, badiiy tarjima masalalar bilan bog‘liq bo‘lib, ta’lim, madaniyat, tarjimashunoslik, adabiyotshunoslik sohalarida ko‘plab muhokamalarga sabab bo‘lmoqda. Umuman olganda, tarjimashunoslikda “tarjima madaniyati” umumiste’moldagi ko‘chma ma’nodagi atama bo‘lib, tarjimonning asliyatdagi g‘oya, mazmun va ma’noni eng minimal yo‘qotishlar bilan tarjima tilida invariantini yaratishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O‘zbek tarjimashunosligida o‘ziga xos milliy munosabatni tarjimada berishga doir nazariy fikrlar G‘.Salomov, Q.Musayev, R.Fayzullayeva, R.Shirinova, N.Vladimirova, I.Mirzayev, M.Xolbekovlarning ishlarida kuzatiladi. Tarjimashunos olima Raima Shirinova ta’kidlaganidek: “Har bir millatning olamni idrok etishi, o‘zini qurshab turgan dunyoni qanday anglashi, eng avvalo, o‘sha xalqning badiiy asarlarida o‘z aksini topadi. Badiiy asarlar tillardan tillarga tarjima qilinsa, begona xalq madaniyati bilan tanishish imkoni paydo bo‘ladi. Badiiy tarjimada asliyat olamining milliy manzarasini tarjimada yorqin va aniq qayta tiklash tarjimonning bilimi, dunyoqarashi, mahorati hamda san’atiga bog‘liq” [7;53-b.].

A.Shveyter ta’kidicha, tarjima bu tarjima faoliyatining jarayoni va natijasi sifatida, asar o‘girilayotgan til madaniyati vakiliga tegishli bo‘ladi. Tarjima akti pragmatik jihatdan ikki yo‘nalishda amal-ga oshiriladi. Bu, birinchidan, asl matnni to‘liq germenevtik jihatdan komil emas, ma’naviy boy, botiniy, yengil-yelpi o‘ylashi, jismonan emas, balki ma’naviy hayot mazmunini boylikka o‘xshatish; yaxshi bilan yomonlik farqiga yetishda boylikni bir bemorga o‘xshatib, unga ta’sir, talqin etishga, ikkinchidan, tarjima matnini til sohiblariga yetkazish muammolarini o‘z ichiga oladi [8;109-b.]. Albatta, bunda asl matn va tarjima matnining bir-biri bilan qanchalik to‘liq mos bo‘lishi, uning adekvatlik darajasi tarjimon tajribasiga bog‘liq bo‘ladi. K.I.Chukovskiyning fikricha, hattoki eng tajribali tarjimonlar ham asl matn mazmunini to‘liq yetkazib bera olmaydilar. Agar tarjimon qancha erkin ijod qilsa, shuncha asl matn mazmuni va shaklidan

uzoqlashadi va kitobxon asl matndagi haqiqiy ifoda mazmunini ola olmaydi [6;55-b.]. Tarjimon o‘zining tarjimonlik faoliyatini alohida olingan til birligi darajasida emas, balki matn darajasida amalga oshiradi. Shuning uchun ham tarjima nazariyasining asosiy masalalaridan biri tarjimonlik ijodini tarjimonning intuitsiyasi asosida yuzaga keladigan jarayon sifatida ochib berishdan iborat. Asl matnni ana shunday interpretatsiya qilishda realiyalarning tarjima matnida to‘g‘ri qo‘llanilishi alohida ahamiyatga ega.

Tarjima amaliyoti ekvivalentsiz leksika, ya’ni tarjimasi yo‘q so‘zlar nazariyasini rad etadi. A.D. Shveyser ta’kidlaganidek, mantiqiy fikrlashning umuminsoniy tabiati tarjima qilish uchun mustahkam asosdir. Shu bilan birga, har qanday badiiy asarda shunday elementlar borki, ularni formal tarjima qilishning imkoni yo‘q [8;109-b.].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning obyekti sifatida frantsuz yozuvchilari Sharl Lui Monteskening “Les Lettres persanes” (“Fors nomalari”) va Amin Maalufning “Samarcande” (“Samarqand yoxud zulmatda yo‘qolgan ziyoni izlab...”) asarlari va ularning o‘zbek tilidagi tarjimalarida aks etgan sharq madaniyati hamda falsafiy qarashlari tanlangan. Tadqiqotning predmetini esa asliyat va tarjimada aks etgan fransuz badiiy matn komponentlarining lingvomadaniy talqini hamda ularning kognitiv va semantik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasvirlash, qiyosiy-chog‘ishtirma, analitik, substitutiv-transformatsion, lingvomadaniy va germenevtik tahlil usullaridan foydalanilgan. Sharq madaniyatiga xos urf-odat, an’ana, irim-sirim kabilar fransuz yozuvchilarining asarlarida tasvirlanishi va ularning boshqa bir tilga, ayniqsa, o‘zbek tiliga o‘girilishi masalalar, shubhasiz, tarjima muammolari ustida alohida tadqiqot olib borishga ehtiyoj tug‘diradi.

Hozirgi kunda ham tarjimonlar tomonidan qiyosiy-chog‘ishtirma planda matnni asliyatdagidek ifoda etishda tarjima va germenevtikani birlashtiruvchi mazkur qoidalarga alohida e’tibor bermaslik holatlari ham uchrab turadi. Masalan, Fransuz yozuvchisi Amin Maaluf yoshligi arab mamlakatlarida o‘tgani va arab tili hamda madaniyatini yaxshi bilganligi bois sharq xalqlari o‘tmish hayoti to‘g‘risida tushunchaga ega bo‘lgan. Bu esa uning shu xalqlarning urf-odatlari, an’analari, yashash tarzlarini sharqliklar ko‘zi bilan mushohada etishiga imkon bergan. Ushbu asar eramizning ming asr oldingi va ming asr keyingi voqeligini tasvirlash orqali sharq xalqlarining ijtimoiy-madaniy hayotlarini falsafiy mushohada etishi jihatidan katta ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlab o‘tish joiz.

Tahlil va natijalar. Masalan, ushbu misolda sharq xalqlariga xos azaliy udum Navro‘z milliy bayrami xususida ham fikr yuritiladi.

Asliyatda: Quel Persan pourrait oublier que cette année-la, en vertu des calculs de Khayyam, *la sacro-sainte fête du Norouze* a été déplacée, que le nouvel an qui devait tomber au milieu du signe des Poissons a été retardé jusqu’au premier soleil du Bélier, que c’est depuis cette réforme que les mois persans se confondent avec les signes des astres, Favardin devenant ainsi le mois du Bélier, Esfand celui des Poissons (96)? [9;96-b.].

Tarjimada: O‘sha yili Xayyom taqvimiga binoan, butun Forsda Navro‘z bayrami yangi yilning boshlanishi deb e’lon qilindi va bu bayram baliq burji o‘rtalaridan qo‘y burjining quyoshli kunlariga ko‘chirildi. Ayni shu yildan boshlab quyosh taqvimi yulduz taqvimiga to‘g‘ri kelmay qoldi [2;146-b.].

Asliyatda qo‘llanilgan til birligining semantik ma’nosi tarjima matnida lug‘aviy ekvivalent yordamida o‘girilishi har doim ham o‘zga til madaniyatiga mos tushavermaydi. Bunday holatlarda ifodalangan qiyoslanayotgan tillarda qo‘llanilgan lisoniy birliklarning o‘zaro muvofiq kelishi matn xususiyatiga bog‘liq bo‘ladi. Yuqoridagi misolda Sharq mamlakatlariga xos diniy-milliy bayram nomi asliyatda transliteratsiya usulida *la sacro-sainte fête du Norouze,* tarjima matnida Navro‘z bayrami shaklida berilgan. Asliyatda Navro‘z bayrami bilan bog‘liq *...que c’est depuis cette réforme que les mois persans se confondent avec les signes des astres, Favardin devenant ainsi le mois du Bélier, Esfand celui des Poissons?* qo‘shimcha ma’lumot tarjima matnida “Ayni shu yildan boshlab quyosh taqvimi yulduz taqvimiga to‘g‘ri kelmay qoldi” mazmunida umumlashtirilgan shaklda berilgan. Quyida bizning tarjima variantda asliyatdagi *Favardin va Esfand* so‘zlarining definitsiyasi keltirildi.

Bizning tarjima variant. O‘sha yili Xayyom taqvimiga binoan, butun Forsda Navro‘z bayrami yangi yilning boshlanishi deb e’lon qilindi va bu bayram baliq burji o‘rtalaridan qo‘y burjining quyoshli kunlariga ko‘chirildi. Ayni shu islohotdan keyin eron taqvimi bo‘yicha oylar yulduzlar belgilari Farvardin (mart – aprel) – Qo‘y, Isfandarmuz (fevral – mart) – Baliq burji bilan birlashgan.

Asliyatdagi *Favardin* qadimiy eron kalendarida bahorning boshlanishi 31 kundan iborat bahoriy teng kunlik, eronliklarning yangi taqvimi bo‘yicha Qo‘y burjiga to‘g‘ri keladi “Esfand” eski Eron taqvimi

boʻyicha yilning oʻn ikkinchi oy, qish faslining uchinchi oyi, umumiy 29 kun yoki 30 kundan iborat kabisa yili hisoblanadi, yangi taqvim boʻyicha Baliq burjiga toʻgʻri keladi [5;18–19-b.].

Baʼzi oʻrinlarda frantsuz tilidagi *voile* (toʻr) soʻzi *paranji* sinonimi bilan almashtirilgan:

– As-tu encore ton voile?

– Je nʼai plus dʼautre voile que la nuit [9;42-b.].

– Sen hamon paranjidamisan?

– Yoʻq, endi mening paranjim – qorongʻu tun, xolos... [9;72-b.].

Paranji ayollarning ustki koʻchalik yopinchigʻi maʼnosini anglatgan. Tarixiy manbalarda u sugʻdiy asosga ega boʻlgan. Yevropaliklar uchun bu yopinchiq Buyuk ipak yoʻli amal qilgan davrlardan boshlab tanish boʻlgan. Bu soʻz, keyinchalik, fransuzcha fringues (kiyim-kechak, ust-bosh) shakliga kirdi. Biroq soʻzning lugʻaviy izohi *fransuzlarga tegishli* fringues soʻziga tasodifiy oʻxshashligi sababli asl maʼno Yevropada unutilgan [6;15-b.]. Paranjining ayollar koʻchalik ustki yopinchigʻi maʼnosidagi vazifasi Oʻrta Osiyoda islom madaniyati doirasida oʻzgarishga uchragan va «paranji» deganda boshga yopiladigan yengsiz kiyim tushunib kelinadi. Hozirda ham Oʻzbekistondagi baʼzi viloyatlarda toʻy marosimlari udumini bajarishda paranji yopinishadi. Shuning uchun ham tarjimon matnda "chodira" oʻrnida oʻzbek millatining dunyoqarashiga yaqin boʻlgan "paranji" soʻzini ishlatgan.

Amin Maalufning ushbu asarida sharq xalqlariga xos juda koʻp realiyalarni uchratamiz, sababi, asar qadim sharqning turmush tarzini, unda kechgan ijtimoiy-madaniy hayotni tasvirlashga bagʻishlangan. Uning oʻzbek tarjimoni tomonidan oʻgirilishi esa asardagi realiyalarni ikki til manzarasida muallif-tarjimon-oʻquvchi dunyoqarashi nuqtai nazaridan germenevtik yondashuv asosida tahlil etishga imkon beradi.

Q.Musayev fikricha, tarjimon xalqlar turmush tushunchalarini anglatadigan xos soʻzlarning maʼno va shakllaridan koʻra koʻproq ularning muayyan matnlarda bajaradigan vazifalarini qayta yaratish muammolarini hal etishi lozim. Bizningcha, milliy-madaniy soʻzlarni oʻrganishda muayyan kontekstlarda uchraydigan realiyalarning informativ va uslubiy xususiyatlarni aniqlash, shuningdek, ularni tarjima tili meʼyorlari hamda madaniyatiga mos birliklarga muvaffaqiyatli almashtira olish nihoyatda muhim hisoblanadi. Masalan,

Asliyatda: – Cʼest du kaghez chinois, le meilleure papier qui ait jamais été produit par les ateliers de Samarcande. Un juif du quartier de Maturid lʼa fabriqué à mon intention, selon une antique recette, entièrement à base de mûrier blanc.Tâte-le, il est de la même sève que la soie [2;42-b.].

Tarjimada: – Bu kitob Samarqand ustaxonalarida qadimiy usulda, eng sifatli *xitoy qogʻozid*an ayyorlangan. Uni motrudiylik bir yahudiy usta mening buyurtmamga binoan maxsus oq tut yogʻochdan tayyorladi. Sahifalarini koʻrgin, ular xuddi shohidek silliq va mustahkam [9;47-b.].

Fransuz kitobxoni tasavvuridagi oliy sudiya, qadimgi davrda sharq xalqlari uchun qozikalon nomi bi-lan assotsiatsiya qilinadi, shuning uchun ham tarjimon *juge* soʻzini qozikalon soʻzi bilan almashtirib, oʻzbek oʻquvchilarining dunyoqarashiga moslashtiradi. Keyingi satrlarda *xitoy qogʻozi* alohida qiymatga ega savdo-sotiq aloqalari tufayli fors tilidan gʻarb tillariga oʻzlashtirilgan birlik boʻlganligi uchun ham, fransuz tilida *kaghez chinois* tarzida ifoda etilgan boʻlsa, oʻzbek tilida transliteratsiya usulida *xitoy qogʻozi* tarzida berilgan. *Un juif du quartier de Maturid* jumlasi soʻzma-soʻz Matrudiy dahasidagi bir yahudiy maʼnosini beradi, tarjimon oʻquvchi eʼtiborini ortiqcha soʻzlar bilan chalgʻitmaslik maqsadida motrudiylik bir yahudiy jumlasi orqali sodda va tushunarli tarzda ustaning tavsifini keltiradi.

Realiyalar tarjimasi, xususan, nomlar bilan bogʻliq tushunchalar xalqning milliy tili manzarasi ifodalashda katta ahamiyatga ega.

Asliyatda: Nasr Khan, maître de la Transoxiane, gesticule, debout devant son trône, géant cuivré ruisselant de broderies... [2;30-b.].

Tarjimada: Movarounnahr hukmdori Nosirxon mis qoplangan yaltiroq taxti yonida tik turganicha ana shunday oʻdagʻaylardi [9;55-b.].

Qoraxoniylar sulolasiga mansub boʻlgan Nosirxon Movoraunnahrni boshqargan, oʻsha davrda Amudaryo va Sirdaryo oʻrtasidagi vodiy–Movoraunnahr boʻlib, uning poytaxti Samarqand shahri edi. Asl matnda muallif Oʻrta Osiyoni gʻarbliklar tushunchasida fransuz tilida *Transoxiane* nomi bilan ataydi, tarjimon ham muallif qarashlaridan chetga chiqmagan holda musulmon sharqini Movoraunnahr nomi bilan tarjima qiladi, chunki, keyinchalik, butun Osiyo territoriyasi shu nom bilan atalganligi tarixdan maʼlum.

Muayyan xalq turmush tarziga xos birliklarni ifodalovchi soʻzlarning aksariyati xalqning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-maʼrifiy, maʼnaviy-sotsial jihatiga xos tushunchalarini aks ettirganligi sabab boshqa xalqlar vakillari uchun ham tushunarli boʻladi. Shuning uchun ham ularni transkriptsiya va transliteratsiya usulidan foydalanib tarjima tili matnida berish eng samarali yoʻl hisoblanadi, shuningdek, bu tarjima tili

kontekstida ortiqcha tafsilotlardan qochish imkonini beradi. Asliyat va tarjima matnida uchragan xos so‘zlarning sharq xalqlari turmush tarzini ifodalashiga ko‘ra quyidagi turlarga ajratib tavsifladik:

Urf-odat va an’analarga oid xos birliklar: *la sacro-sainte fête du Norouze* [2;96-b.] – *Navro‘z bayrami* [9;146-b.]*; une croyance* [2;14-b.] – *udum; ramadane* [2;121-b.] – *Ramazon oyi* [9;185-b.]; *un iftar* [2;121-b.] – *iftorlik* [9;85-b.]; *son taqvim* [9;96b-b.] – *taqvim* [9;146-b.].

Ijtimoiy turmush ashyolariga xos birliklar: *la lumière* [2;13-b.]– *jinchiroq* [9;32-b.]*; devant son trône* [2;30-b.]*, taxti yonida* [9;55-b.] *sur le trône, une espèce de lit-divan surélevé* [2;33-b.] – *supa ustidagi taxtida* [9;60-b.]*, séricіculteurs ou porteurs d’eau* [2;33-b.] –*shohido‘zlar* [9;60-b.]*, un énorme coussin de cuir* [2;73-b.] – *ulkan charm bolish* [9;116-b.]*, d’énormes chaudrons* [9;225-b.] – *doshqozon* [9;327-b.].

Kiyim-kechaklar nomlariga xos birliklar: *il ramasse les pannes de sa robe* [2;20-b.] – *etaklarini yig‘ib oldi* [9;42-b.] *il s’est revêtu d’un linceul blanc* ...[2;52-b.]*; avec pour tout équipement ce ballot et ce turban* [2;98-b.] –*uning oq chakmon kiyib...* [9;86-b.] *janda–yupun kiyingan* [9;151-b.]*, son long manteau de karakul* [2;126-b.] – *uzun qorako‘l po‘stinini* [9;192-b.].

Oziq-ovqatlar nomlariga xos birliklar:.. *d’ou l’immense plateau de cuivre qu’on lui apporte* [2; 29-b.]*...Xizmatkor katta laganda, oq-sarg‘ish rangli mayiz keltirdi*...[9;54-b.]; *pour goûter au vin musqué de Soghdiane* [2;13-b.] –*mayxonaning xushxo‘r so‘g‘diy sharobi* [9;32-b.]; *samovar, l’arak, la vodka ou le vin* [2;414-b.] – *samovar, rus arog‘i yoki musallas ichishdi* [9;289-b.] *de pistaches, d’amandes, de graines salées et de sucreries* [2;198-b.] – *...pista, bodom, sho‘rdanak va meva-chevalardan baham ko‘rib turdilar* [9;298-b.].

Pul birligi nomlariga xos so‘zlar: *grattent un dinar de Kirman, de Nichapour ou de Séville, reniflent un tanka de Delhi, soupèsent un dirham de Boukhara ou font la moue devant un maigre nomisma de Constantinople, nouvellement dévalué* [2;112-b.] – *Kirmon, Nishopur yoki Sevil dinorlarini, Dehli rupiylarini, Buxoro dirhamlari, Konstantinopolning qimmati tushib ketgan pullarini...* [9;115-b.].

Musiqiy asbob nomlariga xos birliklar: *les musicins engagés par le maître de céans un joueur de târ, un virtuose du zarb, un flûtiste* [2;198-b.] –*ashulachilar g‘ijjak, surnay va tor jo‘rligida sultonning sevimli mavzusi...* [9;128-b.].

Tarixiy va diniy tushunchalarga xos birliklar: *le cadi* [2;19-b.] – *qozikalon* [9;39-b.]*; divan du juge* [2;19-b.] –*qozikalon devonida* [9;41-b.]; *le prévenu.., mes gardes* [2;20-b.] – *bandi, soqchi* [9;42-b.]; *fabricant de tentes* [2;22-b.] – *chodirfurush* [2;44-b.]; *une belle esclave* [2;25-b.] – *cho‘ri ayol* [9;48-b.]; *ahdath, la milice urbaine de Samarcande, le chef de patrouille* [2;18-b.] – *qurollangan shahar posboni, posbonlar boshlig‘i [9; 39-b.]; Palkovnik! Colonel!* [2;200-b.] – *polkovnik* [9;294-b.].

Asliyat matnida sharq madaniyatiga xos bo‘lgan onomastik birliklar ko‘proq uchraydi. Bu, so‘zsiz, tarjimondan ularni tarjima matnida qayta yaratishda o‘ziga xos usulda yondashishni talab etadi. N.Grabovskiy fikricha, tarjimon atoqli otlarni o‘girayotganda, asliyat va tarjima matnidagi atoqli otlarni, denotativ yoki konnotativ ma’nolarining virtual obyektini o‘z ko‘z oldiga keltiradi. Matning ma’noviy vazifasidan kelib chiqib, muallif tomonidan atoqli otning ichki shakli ifodalagan ma’nosini berish uchun mazkur otga qo‘shimcha izoh beriladi. Tarjima tiliga o‘girilgan so‘zning transkriptsiyasi orqali esa shu so‘zning definitsiyasi havolada beriladi. Agarda atoqli ot tarjima matniga to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘tsa, unda chet tilidagi atoqli otning tovush formasi asliyat formasiga yaqinlashtiriladi. Biroq har doim ham atoqli otning tarjimasida bunday shakl yaqinlashtirib tarjima qilinishi natija beravermaydi, ushbu so‘zning ma’nosi noto‘g‘ri talqin qilinishi va o‘quvchida turli madaniyatlar haqida noto‘g‘ri tasavvurni tug‘dirishi mumkin. Masalan, *fr. Zayandé-Roud daryo nomi Eron hududiga tegishli daryo hisoblanadi, uni yevropa va sharq xalqlariga mansub o‘quvchilar tushunishi uchun asliyat matnida “Fleuve qui donne la vie”* [2;71-b.] *va tarjima matnida “Zoyande Rud” – Hayotbaxsh daryo* [9;113-b.], shaklida qo‘shimcha ma’lumot berishi asarning ravon o‘qilishiga yordam beradi. Umuman olganda, tahlilga tortilgan antroponim va toponimlarning tarjimasi transformatsiyasi asliyat shakliga muvofiq fonetik transkriptsiya orqali berilgan.

Tarjimon, ayniqsa, an’anaviy tarzda tarjima qilingan chet tilidagi hammaga ma’lum nomlarning yangicha shaklga duch kelganda ehtiyot bo‘lishi kerak. Bunday holatda, tarjimon oldida asliyatdagi nomni transkriptsiyasini tanlash kerakmi yoki barchaga tanish bo‘lgan nomning eski versiyasini qoldirish kerakmi, degan masala ko‘ndalang turadi [10;213–216-b.]. Bunday holatda tarjimon o‘quvchining fikrini chalg‘itmaslik tarafdori bo‘lmog‘i kerak, chunki kitobxon fon bilimlarida mavjud nomning tarjima matnida o‘zgarishi uni asar g‘oyasini tushunishdan chalg‘itishi mumkin. Ayniqsa, har bir tilda toponimlarning shakllanishi murakkab lingvistik-tarixiy jarayon bo‘lib, uni bir, hatto bir nechta so‘z yasash modellariga aylantirish mumkin emas. Masalan, fransuz tili matnida mavjud *Balkh, Merv, Kashgar, Samarcande* shaharlari yoki Khorassan, Perse, Iraks davlatlarining nomlari sharq mamlakatlarida mavjud ma’no-mazmunga ega

bo‘lgan toponimlar bo‘lib, ularning fransuzcha talaffuzi va tarjimasida muammo tug‘ilmaydi, ularning transkripsiyasi boshqa tilda bemalol beriladi. Antroponimlar esa o‘quvchi tasavvurida to‘g‘ri shakllanishi uchun o‘girilayotgan til fonemalari orqali transliteratsiya qilingani maqsadga muvofiq bo‘ladi. Biroq shunday nomlar borki, ularning tarjimasini berishda faqatgina transkripsiya yoki transliteratsiya usulidan foydalanib bo‘lmaydi. Bunda tarjimon oldida asliyatdagi realiyalarni berishda perifraza va moslashtirilgan transpozitsiya, ya’ni adaptatsiya usulidan foydalanish masalasi ham ko‘ndalang qo‘yiladi. Masalan, *fr. l’arak, la vodka ou le vin* [2;198-b.], *o‘zb. rus arog‘i yoki musallas* [9;289-b.], *fr. le plat principal, ce soir-là un djavaher polow, un “riz aux bijoux”* [2;198-b.], *o‘zb. oxirgi taom, javohir palov tortildi* [9;298-b.] kabi xos so‘zlar, birinchidan, asliyatda turkiy tillar tushunchasi asosida tarnskriptsiya shaklida berilgan, tarjima matnida esa sharq xalqlari uchun *osh* o‘zbeklarning milliy taomi, ziravorlar solib pishirilgan palov assotsatsiyasini tug‘diradi, shuning uchun tarjimon asliyatdagi qo‘shimcha tafsilot, *un “riz aux bijoux”* jumlasini tushirib qoldirib adaptatsiya, ya’ni, moslashtirilgan usulida tarjima qiladi va matnni o‘zbek kitobxoni ruhiyatiga yaqinlashtiradi.

Tahlilga tortilgan til birliklari ichida sharq tillariga rus tili orqali o‘zlashgan baynalmilal realiyalar ham uchrashiga guvoh bo‘ldik. Ularning to‘liq kalkalash yo‘li bilan tarjimada berilganligi muallif-tarjimon-o‘quvchi refleksiyasi uyg‘unligini ta’minlashga xizmat qilgan. Masalan, *l’hotêl Prévost* [2;207-b.] – *Prosvet mehmonxonasi* [9;302-b.], *Sovremenny Mir* [2;288-b.] – sotsial demokratlarning “*Sovremenniy mir*” gazetasi [9;331-b.] kabi.

Xulosa va takliflar. Umuman olganda, xos so‘zlar tarjimasi etnografik xususiyatlarni ifodalaydi va tarjimondan mazkur birliklarni o‘girishda alohida yondashuvni talab etadi. Ular o‘z tabiatiga ko‘ra badiiy matnda muayyan milliy, hududiy, mahalliy koloritni aks ettiradi. Ushbu tushunchalarni anglatgan so‘zlarni tarjima tilida transkripsiya va transliteratsiya usuli bilan berish asliyat tilida aks etgan o‘ziga xos muhit, shart-sharoitlarni tarjima matni o‘quvchisiga yengilroq singishini ta’minlaydi.

Yuqorida aytilgan fikrlardan kelib chiqib, badiiy asarning milliy bo‘yoqdor leksikasini tarjima tilida qayta ishlashda bizning tadqiqot ob’ektimiz misolida tarjimaning quyidagi transformatsiya usullari samarador ekanligi aniqlandi:

–transkripsiya;
–transliterasiya;
–moslashtirish;
–eksplikatsiya;
–kalkalash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Гарбовский Н.К. Теория перевода. Учебник, Москва, МГУ, 2004, с. 324.

(2). Маалуф Амин. Самарқанд ёхуд Зулматда йўқолган зиёни излаб....[матн]. Роман, таржимон А.Кўчибоев, Тошкент. “O‘zbekiston”, 2018, 360-бет.

(3). Исҳоқов М.М., Б.С.Ғойибов. Паранжи нима? Бир кийим тарихи... “Водийнома” журнали, 2019, 1-сон. https://oliymahad.uz/16512.

(4). Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. Тошкент, 2005, 13-бет.

(5). Ханджани Л. Об истории названий месяцев в русском и персидском языках. Филология и лингвистика в современном мире. Материалы II междунар. науч. конф. (Москва, июль 2018), М, БукиВеди, 2018, с. 18–19.

(6). Чуковский К.И. Высокое искусство. М., “Сов. писатель”, 1968, с. 55.

(7). Ширинова Р.Х. Олам миллий манзарасининг бадиий таржимада қайта яратилиши. Филол.фан. бўйича... фал.док (DSc) дисс., Тошкент, 2017, 53-бет.

(8). Швейцер АД. Теория перевода. Статус, проблемы, аспекты. М., “Наука”, 1988, с. 109.

(9). Amin Maalouf. Samarcande. Editions Jean-Claude Lattès, 1988, 235 p.

(10). Sodikovna, Kurbonova G. “Germenevtics AS an Aspect of Translation”. European Scholar Journal, vol. 2, № 5, 2021, p. 213–216.

Бобоев Улаш Нематович (доцент Самаркандского государственного института иностранных языков)

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ШОК-ТЕЙМЕНТА В ТЕКСТАХ УЗБЕКСКИХ СМИ

Аннотация. *Статья посвящена актуальной проблематике выявления лингвокультурологических особенностей узбекского шок-теймента для последующего обеспечения их эквивалентного и аутентичного перевода на русский язык. Методами исследования стали: анализ научной литературы, анализ текстов узбекских СМИ, содержащих шок-теймент, лингвокультурологический ана-*